



THE DEVELOPMENT OF IRRIGATION WORKS IN THE KHIVA KHANATE DURING THE REIGN OF MUHAMMAD RAHIM KHAN I

Bezodbek Sobirov

Tutor

Urganch RANCH University of Technology

Urganch, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: N. Muravyov, Tuynukli, dam, Pitnak Oasis, Qilichniyozbay canal, Shovot canal, Irrigation systems.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the construction works and reforms implemented during the twenty-year reign of Muhammad Rahim Khan I (1806–1825) in the Khiva Khanate, aimed at revitalizing the national economy, strengthening the centralized system of governance, and ensuring socio-political stability.

MUHAMMAD RAHIMXON I HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA XONLIGIDA SUG'ORISH ISHLARINING RIVOJLANISHI

Bezodbek Sobirov

Tyutori

Urganch RANCH toxnologiya universiteti

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: N. Muravyev, Tuynukli, to'g'on, Pitnak vohasi, Qilichniyozboy arnasi, Shovot kanali, sug'orish tizimlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligida yigirma yil xukmronlik qilgan Muhammad Rahimxon (1806–1825) I davrida mamlakat iqtisodini tiklash, kuchli va markazlashgan davlat tuzish maqsadida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari va islohotlari to'g'risida so'z yuritiladi.

РАЗВИТИЕ ИРРИГАЦИОННЫХ РАБОТ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I

Безодбек Собиров

Тьютор Ургенчского технологического университета RANCH

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Н. Муравьев, Туйнукли, плотина, дамба, Питнакская долина, канал Киличниеъзой, Шаватский канал, ирригационные системы.

Аннотация: В данной статье рассматриваются созидательные работы и реформы, проведённые в период двадцатилетнего правления в Хивинском ханстве Мухаммада Рахим-хана(1806–1825) I (Бахадур-хана), направленные на восстановление экономики страны и создание сильного централизованного государства.

Kirish. 1806 yilda amir Haydarning qo‘shinlari Xorazmga yurish boshlab, Shabboz yaqinidagi jangda Xiva qo‘shinlariga shikast yetkazdilar. Amudaryoning so‘l qirg‘oqqa o‘tishga uringan Eltuzarxon kema ag‘darilishi natijasida cho‘kib ketdi. Xon bu vaqtda 37 yoshda edi[1]. Ushbu vaziyatdan foydalangan Muhammad Rahimxon davlatni boshqarishni o‘z qo‘liga oldi[2].

Yangi xon salkam 20 yillik hukmronligi davrida mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga alohida e‘tibor qaratdi, xonlikni birlashtirishda ma‘lum ijobiy natijaga erishdi. Rus elchisi N.Muravyev o‘z hisobotida “Muhammad Rahimxon butunlay yangi davlat barpo qildi, deyish mumkin. Endilikda bu davlat O‘rta Osiyodagi eng kuchli xonliklar jumlasiga kiradi”[3],— deb yozgandi.

1806 yilda Xiva taxtiga ko‘tarilgan Muhammad Rahimxon I davlatni boshqarishga kirisharkan “Sulton-mirob, Munis-mirob va Bekali-mirobni Xeyvak kanalining boshini (Polvonyop) tozalashga ehtiyoj bor-yo‘qligini bilib kelish uchun Tuynuqli degan joyga yubordi”[4], — deb yozgandi muarrih Bayoniy.

Muhammad Rahimxon kuchli qo‘shin tuzishga va uning yordamida xonlik hududlarini kengaytirishga intildi. Xususan, 1809 yilda Muhammad Rahimxon I Qo‘ng‘irot atrofidagi aholini bo‘ysundirish maqsadida 10 ming kishilik qo‘shin bilan boradi va Amudaryoning ikki kuchli tarmog‘i — Changli Bo‘zsuv va Chumanayda (Shumanay) bahaybat to‘g‘onlar qurib, suvni boshqa tomonga burib yubortiradi. Xon mazkur to‘g‘onlarni qurish ishini tashkil qilish va nazorat etishni Munis-mirob va Qora Bahodir-mirobga topshiradi. To‘g‘onlar qisqa muddatda tiklanadi. Ammo, suv bosimiga bardosh berolmay 20 kundan keyin buzilib, daryo yana eski o‘zanlari orqali oqa boshlashi natijasida qo‘ng‘irotliklar va ularning ekinzorlari halokatdan qutilib qoladi[5].

1811 yil fevralidan boshlab xon buyrug‘i bilan Orololdi o‘zbeklari ustiga qo‘shinlar yuborila boshlandi[6]. Shu bilan bir qatorda 18 yildan buyon mustaqil hudud sifatida xonlik tarkibida mavjud bo‘lib turgan Qo‘ng‘irot bekligiga qarshi harakatlar boshlandi[7]. Natijada qo‘ng‘irotliklar yetakchisi To‘ramurod so‘fi o‘ldirildi[8].

1814 yilda xon buyrug‘i bilan Shovot kanalining etaklari tartibga solinib, bu yerga Gurlandagi uyg‘ur urug‘ining yana bir qismi ko‘chiriladi. Kelgusi yili esa, bu yerda Toshhovuz

shahri barpo etildi. Xonlikning chegara shaharlarida, karvon va kemalar qatnaydigan yo'llarda maxsus bojxona xizmati joriy etildi. Xonlikda ziroat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning jonlanishi davlat xazinasini daromadining o'sishiga imkon yaratdi. Xivaga kelgan rus elchisi N.Muravyev xon xazinasining bir yillik daromadi 4 mln. so'mdan oshib ketganligi haqida ma'lumot bergandi.

Xiva xonligining iqtisodiy taraqqiyoti sug'orish inshootlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq edi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak Xorazmda Amudaryodan birinchi bo'lib suv oladigan hudud — Pitnak vohasi hisoblanadi. Bir vaqtlar, daryo hali Tuyamo'yin qisnog'idan o'tmasdan, Sulton Sanjar tuz koni yaqinidan Qoraqum tomon oqqan va Pitnak vohasini vujudga keltirgan. Daryo suvlari Chingiz tepa va Qoratosh yaqinidan o'tib, Pitnak va Yakka-chig'ir vohalarini shakllantirgan. "Pitnak vohasi boshqa yerlardan ajralib qolgan, — deb yozgandi Y.G'. G'ulomov. — U Xorazm vohasidan baland Toshsoqa tepaliklari bilan ajratib qo'yilgan. Janubda va janubi-g'arbida u Qoraqum sahrosi bilan tutashgan. Pitnak uncha katta bo'lmagan Xonyopi kanali bilan sug'oriladi. Rivoyatlarga qaraganda, bu kanal Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806-1825) tomonidan qazdirilgan. Sug'orish uchun qulay bo'lgan Pitnak vohasidan bundan ancha ilgari vaqtlarda ham foydalangan bo'lsalar kerak"[9].

Bir vaqtlar mashhur Mahmud az-Zamahshariy tug'ilgan joy nomi bilan ma'lum bo'lgan Izmuxshir shahri aholisi suvsizlikdan juda qattiq aziyat chekkan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon I buyrug'i bilan qazilgan arna shahardagi hayotni qayta tiklashga imkon bergan[10].

Munis va Ogahiyning guvohligicha, 1815 yilda Muhammad Rahimxon kenja inisi "Muhammadnazarbekka buyurdikim, Gurlan qiblasidagi Bo'zdan bir ulug' ariq qozdurg'ay. Lojaram beki mazkur bu amrda masosi mashkura taqdimga yetkurib, Bog'olon arnasidan qozdurib, Qiyot ustidan o'turib, O'rozali inoqning Bo'zdagi bog'ining qiblasidin, Bo'zga solib chiqarib, so'ngin Yangiqal'aiy Xitoyning qiblasidan o'tkardi. Va Anborda oqosining mulozimati yetib, marhumi podshohonag'a sarafroz bo'ldi. Ullu arig' holo "Qilichniyozboy arnasi"ga mashhurdir"[11].

Xuddi shu voqea haqida muarrih Muhammad Yusuf Bayoniy yozadi: "Bog'olon arnasidan yordirib, Qiyot ustidan o'tkarib, bo'zga chiqarib, yoinki qal'ai Xitoyning janubiy hududidan o'tkarib, itmomga yetkurdi. Ul ariqning oyog'i Shorqirovuqqa borurkim, oni Qilichboy arnasi derlar"[12].

Y.G'. G'ulomov yozishicha: "Yana Bayoniy, Qilichniyozboy arnasidan chap tomonga Besho'yli, so'l tomonga Gurlan, Nukus, Uyg'ur, Polvonbek yoplari ajralib chiqqan"[13], deb ko'rsatgandi. Shu bilan bir qatorda Y.F. Fulomov: "Qorako'z va Qilich Niyozboy kanallari Muhammad Rahimxonning ikki lashkarboshisi — Qilich Niyozboy va Davlat Qorako'z tomonidan qurildi",— deb yozgandi[14].

Xon dastavval mamlakatdagi tarqoqlikka chek qo'yish, davlat hokimiyatini markazlashtirish va mustahkamlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb hisobladi. Odamlarning qobiliyatiga qarab ish topshiradigan xon davlat ahamiyatiga molik tadbirlarini amalga oshirish uchun o'z atrofiga ishonchli, nufuzli, ishbilarmon amaldorlar, ruhoniylar va harbiylarni to'pladi.[15].

Davlatni boshqarish ishlarini isloh qilish bilan jiddiy shug'ullangan Muhammad Rahimxon Abulg'azi Bahodirxon davrida joriy etilgan boshqaruv tartibini o'zgartirdi. Xonlikda sug'orish tizimlarining yaxshilanishi iqtisodiy hayotning yuksalishiga va yangi ekin maydonlarining kengayishiga olib keldi.

1825 yil 7 mayda 50 yoshida bo'lgan Muhammad Rahimxon I vafot qildi. Uning o'rniga taxtga ko'tarilgan o'g'li Olloqulixon (1795–1842) xonlikning hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlash ishlarini davom ettirdi[16].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Т., 1960. – Б. 8.
2. Ёўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 86 ва кейингилари.
3. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и в Хиву. – М., 1822. Ч. 2. – С. 44.
4. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... Т., 1959. – Б. 76.
5. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Аму-Дарья // Соч. – Т. III. – С. 181; Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Т., 1959. Б. 8-9, 277.
6. У даврдаги воқеалар ҳақида Я.Ф.Фуломов шундай ёзади: “XIX аср бошларида Қўнғиротни қамал қилган хон шаҳар ҳимоячиларини таслим қилиш мақсадида атрофдаги барча экинзорларни йўқ қилди. Хоннинг талабига қўнғиротликлар: “Уч ой - қовун, уч ой - сут-қатик, уч ой - қовоқ, уч ой - балиқ”, яъни ҳали тирикчилик учун имкониятимиз бор дея жавоб қайтарган эканлар // Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. – С. 7. / WWW: Kungrad.com.
7. Сайманов С.С. История города Кунграда (XVIII – первая половина XIX вв.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 2001. – С 16.
8. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. 1636 вар; Яна қаранг: Камалов С. Қарақалпоқлардын халық болып қалиплесиўи ҳам онын мамлекетлигинин тарихийхынан. – Б. 28; Шу муаллиф. Материалы по истории Каракалпакии и каракалпаков. – С. 78.
9. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... Т., 1959– Б. 48.
10. ЎзР. ФАШИ. Қўлёзмалар фонди. – № 1335. – 58-б-варақ.
11. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Б. 414.
12. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Б. 217.
13. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи ... Т., 1959 – Б. 227.